

OILA— O'ZBEKISTON JAMIYATINING ASOSI

16 yoshlilar uchun oila haqida o'ylash zaruriy ehtiyoj. Biroq unga oilaning butun mohiyati, ko'lami, mas'uliyati, oila oldidagi burchini his qilish, oila sog'lomligini va mustahkamligini ta'minlashga tayyorgarlik darajasi va hayotiy tajriba zarur ekanligi hammaga ayon. Biroq, bu yoshda har bir yigit-qiz o'z kelajagi, baxtli turmushi, muhabbatli hayoti haqida o'ylashi muqarrar.

Oila azaldan xalqimiz uchun muqaddas hisoblangan. Uni asrash, avaylash va har bir oilaning o'z an'anasi, turmush tarzi, hayotiy me'yorlari borki, bu ana shu muhitning sog'lom va mustahkamligi bilan ulkan jamiyatning bir bo'lagi sifatida miliy va ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi.

Ayni ana shu jamiyatning kichkina yacheykasining ma'naviy qiyofasi, mustahkamligi, axloqiy va jismoniy yetukligi oilaning baxtli va totli hayotiga asos bo'ladi. Bu esa yosh avlodning oilaga munosabatini, oila qurish ehtiyojini va orzu-umidini bir qadar pishitib olishiga yordam beradi.

Inson paydo bo'libdiki, asrlar mobaynida muhabbat haqida orzu qilib keladi. Butun Yer sharida insoniyat millati, yashayotgan makoni, diniy mansubligi va e'tiqodidan qat'i nazar u haqda o'ylaydi, orzu qiladi. Rassomlar, shoirlar, musiqachilar qator-qator noyob va betakror asarlar yaratishadi. Biroq hayot haqiqati shundaki, oila, muhabbat tushunchalari uyg'unlashib ketib, eng oddiy holatda hayoting davomida bir-biringni qo'llab-quvvatlashing, bir-biringni himoya qila olishing va asray bilishing, hayotdagi eng go'zal lahzalarni butun ko'lami bilan his qila olishing doimiy ehtiyojga va inson tayanchiga aylanadi. Ana shunday ko'nikmaga ega bo'lgan har qanday yoshni oila qurishga tayyor deyish mumkin. Agar jamiyatdagi har bir oila ana shunday imkoniyatga ega bo'lsa, shunday muhit yarata olsa, o'z hayotidan mamnunlik, o'tayotgan kunidan rizolik kayfiyati bilan yashasa, jamiyat baxtli va farovon bo'ladi.

Har bir yosh oila qurishga kirishar ekan, u oila qonunchiligini, huquq va majburiyatlarini aniq bilmog'i lozim.

O'zbekistonda oila qurish tartibi qonun bilan belgilangan. Eng muhimi, har bir yosh oila qurish yoshiga yetmog'i va ma'lum darajada o'z hayotini yo'lga qo'yish ko'nikmasiga ega bo'lmog'i lozim. Bu O'zbekistonda o'g'il bolalar uchun 18, qiz bolalar uchun 17 yosh qilib belgilangan. Jismoniy va axloqiy barkamollik insonning ijtimoiy mustaqilligini belgilovchi, o'z hayotini yo'lga qo'yishga qodirlik salohiyatini ko'rsatuvchi intellektual imkonyatdir.

Butun dunyoda barcha mamlakatlarda nikohdan o'tish madaniyati ijtimoiy-huquqiy voqelik, to'y esa yorqin va unutilmas bayram sifatida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga muvofiq: *"Oila jamiyatning asosiy bog'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi"*. Davlatning oilaga bunday munosabati bejiz emas. Chunki har qanday oila katta yoki kichikligidan qat'i nazar, ijtimoiy voqelik hamda jamiyatning bir bo'lagidir. Har bir oilaning ijtimoiy shakllanishi jihatidan u ijtimoiy hayot nuqtai

nazaridan jamiyatning barcha sohalari bilan siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy-ruhiy qiyofasiga ta'sir o'tkazadi.

Olimlarning xulosalariga ko'ra, nikoh va oila bir narsa emas. Chunki nikohda rasmiy-huquqiy majburiyat bor. Oila tushunchasida esa ma'naviyat, qalb va tuyg'u bilan bog'liq bo'lgan, har ikki tomondagi sevgi va muhabbatning o'zaro uyg'unligi orqali dunyoga keladigan burch, mas'uliyat, bir-biri oldidagi javobgarlik tuyg'usi yotadi. Nikoh ittifoqidagi bir-birini sevgan ikki inson o'rtasida uchinchi odam - bola dunyoga keladi. Ana shundan so'nggina tom ma'nodagi **oilaga** asos solinadi. Ota va ona rasmiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan odam sifatida bola tug'ilganidan so'ng ularda o'zaro qavm-qondoshlik, umumiy uyg'unlik va birlik hissi paydo bo'ladi.

Ikkinchi bolaning tug'ilishi bilan ota-onaga o'zining reproduktiv vazifasini bajargan hisoblanadi. Ya'ni ikki bola ota va onaning jamiyatdagi o'rnini egallaydigan, vaqti kelib ularning o'rnini to'ldiradigan bo'ladi.

Ota-onalar tabiiy ravishda bolaga itoatkor bo'lib qolishadi. Xalqimizda "Bola-podsho" degan ibora bekorga aytilmagan. Uning hukmi vojib, muhokama qilinmaydi. Ana shu tarzda ota-onaga zimmasiga bolaning sog'ligi, jismoniy va ma'naviy sog'lom rivojlanishi, ma'lumot olishi uchun g'amxo'rlik qilish, yetarli sharoit yaratish va huquqlarini himoya qilish majburiyati tushadi.

Oilada bola tug'ilishi avlodlar davomiyligini va shu tarzda millat vorisiyligini saqlash vazifasini bajaradi. O'g'il-qizlari orqali ota-onalar mamlakat aholisining rivojlanishi, uning ijtimoiy, iqtisodiy istiqbolini belgilash singari umummilliy va yuksak ijtimoiy vazifani ado etadi. Bu oila tushunchasining mohiyatini va butun qadriyatini belgilaydi.

Ota-onalarning huquqi ko'p jihatdan ularning majburiyati bilan bog'lanib ketadi. Albatta, ota-onaga farzandiga ism qo'yish, uning yashash joyi va to'laqonli fuqaro bo'lishi majburiyati bilan yashaydi. Har bir ota-onaga o'z farzandlarini nazorat qilib turishi, o'qishi, ta'lim olishi, sog'lom va barkamol o'sishini ta'minlashi orqali jamiyat oldidagi burchini va huquqiy majburiyatini bajarganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'ziga xos yana bir jihati bor: bu bevosita jahon Konstitutsiyaviy tajribasi bilan milliy turmush tarzimiz, an'analimiz, qadriyatlarimiz, ma'naviy va axloqiy me'yorlarimizni o'z ichiga olgan qadriyatlarning uyg'unlashib ketganligida ko'rinadi. Boshqacha qilib aytganda, dunyoning biror bir Konstitutsiyasida oila masalasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagichalik aniq, lo'nda, majburiyatlar va burchlar yorqin ko'rsatilmagan. Masalan, Konstitutsiyamizning 64-moddasida: *"Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar"*, deyiladi. Konstitutsiyaning 66-moddasida esa *"Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar"* deb aniq ko'rsatilgan. Ana shu holatning o'zi ota-onalarning farzandlar oldidagi majburiyatini, farzandlarning esa ota-onalar oldidagi burchini ko'rsatib beradi. O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda oilaga tegishli, uning qadriyatlarini

yanada rivojlantirishga, jamiyatda oilaning rolini oshirishga oid yangi davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Oila siyosati, onalik va bolalikni himoya qilish, yosh avlod tarbiyasi, jismoniy va ma'naviy barkamol o'sishiga qaratilgan qonunlar turkumi yaratildi va qabul qilindi. Oilani saqlash va mustahkamlash, unga yordam berish va qonun yo'li bilan himoya qilish, davlat va jamiyat tomonidan bolalarni, oilani, onalik va bolalikni himoya qilish kafolatlarini o'zida mujassam etgan O'zbekiston Respublikasining "Oila Kodeksi", "Oila yili" deb e'lon qilingan 1998-yili qabul qilindi. Bir qator jamoat tashkilotlari oila, onalik va bolalik masalalari bilan doimiy va uzluksiz shug'ullanib kelmoqda. Xususan, Xotin-qizlar qo'mitasi va uning joylardagi tashkilotlari, "Mahalla" xayriya jamg'armasi, "Sog'lom avlod uchun" nodavlat xalqaro jamg'armasi, "Mehr nuri" jamg'armasi, "Nuroni" jamg'armasi, "Kamolot" YOIH va boshqa qator tashkilotlar samarali faoliyat ko'rsatmoqda.